

BOSHLANG'ICH SINFLARDAGI INKLYUZIV TA'LIMNING AHAMIYATI

Sidikova Zulfiya Murodjon qizi

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

Mahfuza Mirzaolimova Shovkatjon qizi

Aslonova Poshshoxon Suxbatzoda

Vohidjonova Farxunda Payravzoda

Farg'ona davlat universiteti talabalari.

Annotatsiya: bugungi jadal suratlar bilan rivojlanib borayotgan zamonda sifatli ta'lim va tarbiyaning ahamiyati yuqori. shuning uchun ham yurtimizda ta'lim sohasiga alohida e'tibor beriladi. Ta'limning eng muhim bosqichi boshlang'ich ta'lim hisoblanadi. Ushbu maqolamizda inklyuziv ta'lim va uni boshlang'ich sinflardan joriy qilinishi va uning ahamiyati haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, islohotlar, qarorlar, inklyuziv ta'lim, imkoniyati cheklangan bolalar, uy maktabi, maxsus internat maktablari, boshlang'ich sinflar.

Ta'lim va tarbiya insoniyatning yashash tarzi, takomili, tinchligi, barqarorligi, uning asli kim ekanligini ko'rsatuvchi muhim omildir. Bu ikki tushunchani ayro holda tasavvur etib bo'lmaydi. Ular o'rtasida ochiq-oydin farq bo'lsa ham, avvalo, ular bir-birini to'ldirib, boyitib boradi. Ta'lim tarbiyaning asosiy bo'g'inidir. Tarbiya ona qornidan boshlansa, ta'lim esa u aqlini tanigan paytdan boshlab, avval maktabgacha ta'lim, boshlang'ich va o'rta ta'lim tarzida o'qitilib boriladi. Ta'limning eng muhim bosqichi boshlang'ich ta'lim hisoblanadi. Bu davrda bolaga qanday ta'lim berilsa, uning keying ta'lim jarayonlari ham aynan davom etadi. O'zbekistonda ilm-fan rivoji, ta'lim-tarbiya jarayoni aholi turmush faravonligini ta'minlashning asosiy omillaridan biridir. Shuning uchun ham yurtboshimiz ta'lim sohasida olib borayotgan islohotlari diqqatga sazovordir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev barcha ma'ruzalarida ilm-fan, innovatsiya shijoat va tashabbuskorlik xususida takror va takror ta'kidlaydilar. Prezidentimizning "Ta'lim-tarbiya masalasini hal qilmasdan, mamlakatimiz istiqbolini tasavvur qilib bo'lmaydi" [1] degan iboralari esa fikrimizning misolidir. Ta'lim-tarbiya uzluksiz jarayondir, unda hech qachon tanaffus bo'lmaydi va yuksak mas'uliyat talab etadi.

Har bir shaxs ijtimoiy, ruhiy, moddiy holatidan qat'iy nazar ta'lim olish huquqiga ega. Jismonan, ruhan sog'lom bolalarning ta'limi majburiydir. Shu bilan bilan birga jismoniy, ruhiy tomondan nuqsonli avlodning ham o'z ta'lim shakli va maxsus maktablari bor. Lekin bu ularning eng boshidan jamiyatdan ajratib qo'yuvchi

omil hisoblanadi. Ko‘pincha ota-onalar bu kabi farzandlarini boshqa bolalarga kulgu bo‘lmasin deb boshqa bolalarga qo‘shmaydi, faqat maxsus maktab va internatlarga olib borishadi yokida doimiy nazoratda uyda qoldirishni avzal ko‘rishadi. Shu uchun ham bu kabi bolalarning deyarli ko‘pchiligi kimningdir ko‘magiga va qaroviga muhtoj tarzda yashashadi. Bu esa, aslida bu kabi bolalarga haqqoniy tarzda yondashuv emas, ularni butun bir jamiyatdan, hayotdan uzib qo‘yishdir. Juda ham kichik, oq-qoradan iborat dunyo yaratib ularni butun umr shu dunyochaning ichidan chiqarmay yashashga mahkum etishdir. Bu kabi holatlarga barham berish, nuqsonli bolalarning hayotini, kelajagini o‘zgartirish maqsadida, inklyuziv ta’lim turi joriy etilgan.

"Inklyuziv ta’lim" atamasi inglizcha „inclusif“ so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, „o‘z ichiga oladi“ deb tarjima qilinadi va maxsus ehtiyojlari bo‘lgan va shartli ravishda sog‘lom, ya’ni sog‘ligi cheklanmagan odamlarning birgalikdagi ta’limini anglatadi. Inklyuziv ta’lim – davlat siyosati bo‘lib, nogiron va sog‘lom bolalar o‘rtasidagi to‘siqlarni bartaraf etish, maxsus ta’limga muhtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko‘ra nogiron bo‘lgan) o‘smirlar rivojlanishda uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat’iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga, yo‘naltirilga, umumta’lim jarayoniga qo‘shishni ifodalovchi ta’lim tizimidir. Inklyuziv ta’lim – hamkorlikdagi ta’lim bo‘lib, butun hamjamiyati tomonidan eng insonparvar va samarali ta’lim sifatida tan olingan. Inklyuziv ta’lim bu shunday ta’limtarbiya jarayoniki, unda jismoniy, ruhiy, aqliy va boshqa muammolaridan qat’iy nazar barcha bolalar umumiy tarzda, o‘z uyi va hududida, ehtiyojlariga mos barcha sharoitlar yaratilgan maktablarda, o‘z tengqurlari bilan birga ta’lim olishi demakdir [2;280.].

“O‘zbekistonda inklyuziv ta’lim ilk asoschilari va olimlari. 1996-yilda xorijiy delegatsiya mamlakatimizga kelib, ilk muzokaralarni o‘tkazgan. Ushbu muzokaralar A.Avloniy nomidagi XTTXQTMOI Maxsus ta’lim kafedrasi va RTM maxsus ta’lim bo‘limi va Nizomiy nomidagi TDPU Defektologiya fakulteti professor o‘qituvchilari ishtirokida o‘tkazilgan. O‘zbekistonlik olim R.Sh.Shomahmudova mamlakatimizga boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik orqali ilk bor Angliya tajribasini olib kirishga muvaffaq bo‘lgan. Olima rahbarligida RTM da “Inklyuziv ta’lim”ga bag‘ishlangan xalqaro konferensiya tashkil etilgan. YUNICEF xalqaro tashkiloti va XTB hamkorligida qator loyihalar amalga oshirilgan. Ushbu loyihalarning koordinatorlari sifatida O‘zbekistonlik olimlar professor L.Mo‘minova dotsent U.Fayziyevalar ish olib borganlar.”[2; 283.]

Inklyuziv ta’limning asosiy tamoyillari:

1. Teng imkoniyatlar yaratish: har bir bola, uning imkoniyatlari va ehtiyojlaridan qat’i nazar, ta’lim olishda teng huquqlarga ega bo‘lishi kerak.

2. Individuallashtirilgan yondashuv: o'quv dasturlari va metodikalar har bir bolaning ehtiyojlariga moslashtiriladi.

3. Hamkorlik: o'qituvchilar, ota-onalar va mutaxassislar birgalikda ishlash orqali bolalarning rivojlanishini ta'minlaydi.

4. Ijtimoiy integratsiya: nogiron bolalar boshqalar bilan bir xil sharoitda o'qib, jamiyatning faol ishtirokchisiga aylanishi uchun sharoit yaratiladi.

Boshlang'ich ta'limda inklyuziv ta'limni joriy etishning ahamiyati:

- Bolalarda bag'rikenglik, hurmat va hamdardlik fazilatlarini rivojlantiradi.
- Nogiron bolalarga jamiyatda o'z o'rnini topish va hayot sifatini yaxshilash imkonini beradi.

- Barcha o'quvchilarning turli xildagi o'quv ehtiyojlarini qondirish orqali ta'lim sifatini oshiradi.

Muhtaram yurtboshimiz aytganlaridek: "Nogironligi bo'lgan bolalar ham jamiyatning bir qismi. Biz ularga teng imkoniyatlar yaratib berishimiz, ta'lim olish huquqini ta'minlashimiz kerak"[5.]. Chindan ham boshlang'ich ta'lim ta-lim-tarbiya jarayonining poydevori ekan, inklyuziv ta'lim jarayonini ham aynan shu bosqichdan boshlab mustahkam tadbiq etish zarurdir. Bu, avvalo, nuqsonli bolalarni ochiq jamiyatga olib kirishda va ularga nisbatan sog'lom qarshlarni shakllantirishda juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'qituvchilar va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning marosimdagi nutqi. 2020-yil 30-sentyabr.

2. Qodirova, F., Ibadullayeva, S. N. (2021). Nogironligi bo'lgan ota-ona qaramogida bo'lgan yetim bolalarni ijtimoiylashtirishning metodik klasteri. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar, 6(1), 280-286.

3. BMTning "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya(UNCPRD) 2006-yil13-dekabr

4. U.J. mansurov. O'zbekistonda ta'lim sohasidagi islohotlar:inklyuziv ta'lim va yangicha pedagogik yondashuvlar.

5. <https://lex.uz>